

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th December, 2022

ISSN: XXXX-XXXX

Website: econferenceseries.com

BIOFIZIKA DARSINING AHAMIYATI VA O'RGANILIDH METODLARI

Arslonova Gulnora Anvarjonovna

Olmalik Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada fizika hamda biofizika fanini o'qitishda sinflar darajasida o'quvchilar fikrlash doirasidan kelib chiqqan holda innovatsion va interfaol usullardan foydalish haqida bayon qilinadi.

Kalit so'zlar: "biofizika", yorug'lik, trayektoriya, gipoteza, temperatura, absolyut, nisbiy, maydon, radiatsiya, radiaktivlik, raketa, .

Abstract

This article discusses the use of innovative and interactive methods in the teaching of physics in secondary schools at the classroom level, based on the scope of students' thinking.

Keywords: "Physics", light, trajectory, hypothesis, temperature, absolute, relative, field, radiation, radioactivity, rocket, biophysics.

O'quvchilarni fizik hodisalarni o'rganishda mustaqil ravishda kuzatish, tajribalar o'tkazish, tajriba natijalarini umumlashirish hamda darsliklar, o'quv qo'llanmalari va boshqa qo'shimcha adabiyotlardan foydalana olishga o'rgatish muhim o'rin tutadi.

Ma'lumki, organizm muhitning harorat (temperatura), ravshanlik (yorug'lik), namlik (absolyut va nisbiy), havo bosimi, shovqin, elektr va magnit maydoni, radiatsiya oqimi, radiaktivlik va shu kabi fizik xarakteristikalarining o'zgarishidan darhol ta'sirlanadi.

Fizikani o'rganishda o'quvchilarga biofizikaga oid materiallardan ham foydalanish mumkin. Biofizika elementlarini o'quvchilarga o'rgatishda o'qitishning turli formalaridan foydalanish mumkin: dars, ekskursiya, amaliy ish va laboratoriya mashg'ulotlari, o'quvchilarning mustaqil tadqiqot olib borish faoliyati, referatlar tayyorlashi va boshqalar. Biroq biofizikaga oid materialni o'rganishda ko'pincha darsdan foydalanish yaxshi natija beradi.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th December, 2022

ISSN: XXXX-XXXX

Website: econferenceseries.com

Kuzatishlar o'quvchilarni biofizika elementlari bilan tanishtirishda fragmentdan foydalanish maqsadga muvofiq ekanini ko'rsatdi, chunki u juda kam o'quv vaqtini sarf qilishni talab etadi va fizika bilan biologiyani bog'lanishini sistemali amalga oshirilishini ta'minlaydi. Buning uchun ancha ko'p vaqtdan foydalanish o'quvchilarning sinfdan va maktabdan tashqi faoliyatining turli xillari va fakultativ mashg'ulotlar uchun xarakterli deb hisoblanadi.

O'rganish uchun ajratib olingan biofizik materialni didaktik jihatdan shunday o'zgartirish kerakki, uni fizikaning aniq bir mavzularini o'rganish uchun eng yaxshi holga keltirish lozim bo'lsin, chunki, o'quvchilarga biofizika elementlarining mazmunini ochib berishning metod va formalari o'quvchilar o'quv faoliyatini tashkil etishning turli usullarini va alohida o'qitish metodlarini talab qilmaydi. Ular o'quvchilarni texnika elementlari bilan tanishtirish uchun foydalanadigan metodlardan deyarli farq qilmaydi. Albatta, bunda biofizik jismning o'ziga xos mazmuni hisobga olinishi, materialni chuqur bayon qilish usuli to'g'ri aniqlanishi, aniq dars orasiga jismlarning xususiyati va xossasini hisobga olinishi kerak.

Issiqlik hodisalari mavzularida issiqlikning inson hayotida eng muhim o'rin tutishi ko'rsatib beriladi. Bunda o'quvchilarning yosh xususiyatini hisobga olib, televizorda ko'rgan multfilmlari, qadimgi dunyo tarixi darslarida eshitgan olov haqidagi afsonalari eslatilib, insonning yashash uchun tabiatda olib borgan kurashlari qiziqarli holda o'tkaziladi. Darslikda ulardan ayrimli keltirilgan., Olovni bo'ysundirish'' nafaqat qadimgi davrda, balki hozirgi zamonning eng baquvvat texnikasida ham asosiy harakatlantiruvchi kuch ekanligi ko'rsatib beriladi. Masalan: Kosmik uchiruvchi raketa, qit'alararo raketa, barcha kemalar, avtomobillar, traktorlar, poyezdlar va hokazo. Shunga ko'ra issiqlik hodisalarni o'rgaish, u bilan bog'liq mashinalarni ishlatish, sozlash va takomillashtirishda kerak bo'lishi uqtiriladi. Undan keying mavzu,,issiqlikni hosil qiluvchi va qabul qiluvchilar''ga o'tish bir tekisda boradi. Yerdagi issiqlikning asosiy manbai-Quyoshdir. Avtomobil dvigatelida yonib turgan benzinning ham asosi Quyosh ekanligi tushuntirib o'tiladi. Bu bilan birga issiqlikni faqatgina nimanidir yondirish orqali emas, balki ish bajarib ham hosil qilish mumkinligi isbotlab ko'rsatiladi. Bundan tangani jun materialga ishqalaganda isiganligi namoyish qilinadi. Bu bilan ishning energiyaga, energiyani ishga aylanishi tushunchasi hosil qilinishiga zamin yaratiladi.

Hozirgi fan-texnikaning rivojlanishi bilim, amaliyot va tajriba o'zaro aloqani uzviy bog'lab borilishini taqozo qiladi. Fizika fani ishlab chiqarishdan ajratilgan holda o'qitilsa, o'quvchilar bu fanning nima uchun kerakligini, uni o'rganishning nima



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th December, 2022

ISSN: XXXX-XXXX

Website: econferenceseries.com

uchun zarurligini tushuna olmaydilar. O'quvchilarning faqatgina fizika faniga qiziqishini oshirishga qaratilmay, balki ularning texnik faolligini rivojlantirish, fan va texnika yutuqlarining zamonaviy ishlab chiqarishdagi o'rni va ahamiyatini ko'rsatish bilan ularning politexnik tayyorgarligini kuchaytirishni ham ko'zda tutadi. Jumladan,

“Elektr sig’imi”, “Kondensatorlar”, “Yarim o'tkazgichli asboblarda”, “Elektromagnit tebranishlar va to'lqinlar” mavzular o'tilayotgan vaqtda uning amaliy ahamiyatiga e'tibor berilishi, o'quvchilarning texnik ijodiy qobiliyatlarini rivojlanishiga ijobiy ta'sir qiladi.

O'quvchilar “Tokning magnit maydoni” masalasini o'rganishda organizm to'qimalarining magnit xossalari, to'qimalar ma'lum darajada suvga o'xshab diamagnit ekani, shuning uchun u tashqi magnit maydon ta'sirida umuman magnitlanmasligi haqida bilib oladilar. Biroq organizmda paramagnit moddalar, molekulalar, ionlar mavjud(organizmda ferramagnit zarralar bo'lmaydi). Magnit maydon ularga ta'sir etib, hayot faoliyatining ko'pgina jarayonlariga, masalan, hujayralarning holatiga, to'qimalarning nafas olishiga, odamning nerv sistemasiga va boshqalariga ta'sir etadi. Yana shuni ham nazarda tutish kerakki, o'tkazgichning qarshiligi kichik bo'lganda qarshilik qancha kam bo'lsa, tok kuchi shuncha katta bo'ladi. Bunga e'tiborsizlik qilingan hollarda og'ir oqibatlariga olib kelishi mumkin. Fizika fanini o'qitish jarayonida o'quvchilarni bu fanga qiziqtirishni yana bir usullaridan biri dars mobaynida fizik tajribalar tabiatdagi fizik jarayonlarni o'quvchilarning o'zlari fizikani o'rganishga qadar kuzatganlar. Lekin bu kuzatishlar natijasidabarcha o'quvchilar ularning mohiyati haqida to'g'ri xulosa chiqara olmaydilar, albatta. Bundan tashqari hamma o'quvchilar ham mavjud jarayonlarning barchasini ko'rmagan. Shu sababli maktab sharoiti doirasida sinfda maxsus tashkil etiladigan fizik tajribalarni ko'rsatish zaruriyati tug'iladi. Fizikadan to'g'ri tashkil etilib, namoyish qilingan va talqin etilgan tajribalar o'quvchida nafaqat asbob-uskunalar tuzilishi, ishlashini o'rganib qolmay, balki ulardagi qonuniyatlarni payqashga ham imkoniyat tug'diradi. Fizik namoyishlar o'quvchilarga mazkur fanga bo'lgan qiziqishlarini ham orttiradi. Namoyishlar yordmida fizik tushunchalar, fizik kattaliklar va ularni o'lchash imkoniyatlari ko'rsatiladi. Ular so'ngra laboratoriya ishlarini bajarishda, masalalarni yechishda shakllanadi, rivojlanadi va bilimlari chuqurlashib boradi. Fizika darslarining boshida shunday tajribalarni namoyish etish kerakki, ular oddiy bo'lsa-da, boshlang'ich nuqta bo'lsin. Ularda ko'rgan hodisalar, keyinchalik boshqalarini tushuntirish uchun asos bo'ladi.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th December, 2022

ISSN: XXXX-XXXX

Website: econferenceseries.com

Fizik kattaliklarning o'lchamlari(uzunlik, vaqt, massa, bosim, temperatura va h.k) aniqlanadi va ular orasidagi miqdoriy va sifat bog'lanishlari ko'rsatiladi(suyulik bosimining idish tubiga bosimi).

Namoyish tajribalarini o'rgatish jarayonida fizika qonunlaridan amalda foydalanishni ko'rsatishdan iborat(issiqlik mashinasi, termometr).

Keyingi namoyishlari bilimlarni chuqurlashtirishga qaratilgandir. Ularda ko'rsatiladigan tajribalarda bir nechta fizik qonun ishlatilgan murakkab jarayon ko'rsatiladi. Albatta, bunday tajribalar unchalik ko'p bo'lmay, o'quvchilarda ma'lum miqdorda bilimlar to'planganda o'tkaziladi. Ko'rsatiladigan namoyishlar soni ko'p bo'lmasligi kerak. Tajriba o'qituvchi tushuntirishiga ko'makchi sifatida berilgani ma'qul. Ishlatiladigan asboblarda sodda va turli xil bo'lib, o'quvchi diqqatini charchatmasligi kerak. Eng muhimi namoyish qisqa muddatli bo'lishi talab qilinadi. Shuningdek, uyga bajarish uchun qiziqarli tajribalar ham berish mumkin.

1. Yupqa devorli stakan olib, issiq suvga botirib qo'ying. So'ngra ochiq tomoni bilan sovuq suvga to'nkarib qo'ying. Birozdan so'ng stakan ichida sovuq suv ko'tariladi. Nimaga?
2. Ikkita stakan oling. Ularning og'zi bilan bir xil diametrda rezina halqa qirqib oling. Birinchi stakan og'ziga rezina halqani qo'ying. Kichik qog'oz bo'lagini stakan ichiga tashlab yoqib yuboring. Darhol ikkinchi stakan og'zini rezina halqa ustiga qo'yib yoping. 1-2 s dan so'ng yuqoridagi stakanni ko'tarsangiz pastkisi ham qo'shib ko'tariladi. Nega?
3. Qalinroq karton qog'ozdan quticha yasang. Uning ichiga suv quyib qizigan elektr plitkasiga qo'ying. Suv isiydi va nihoyat qaynaydi. Quti butun qoladi. Sababini tushuntiring.

Fizikadan ekskursiyalar o'tkazish metodikasi bir qator tadqiqotlarda o'z aksini topadi, biroq ularda kuzatish obyekti sifatida asosan qishloq xo'jalik va sanoat korxonalari xizmat qiladi. O'quvchilarning fizikadan olgan bilimlari sifatini yaxshilash ularni kasbga yo'llash uchun uyushtiriladigan ekskursiyalar yaxshi natija beradi.

Masalan, kosmonavtikaga oid ko'rgazmalari bor muzeylar, meditsina texnikasiga oid poliklinikalarda kuzatuvlar. Maqsad- o'quvchilarni elektr tokining organizmga biologik ta'sirini ko'rsatish va uning meditsina asboblari bema'lumlarni diagnostika qilish va davolashda qo'llanilishini o'quvchilarga ko'rsatish. Ekskursiya poliklinikaning fizioterapevtik kabinetida o'tkaziladi.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th December, 2022

ISSN: XXXX-XXXX

Website: econferenceseries.com

Ekskursiyalarni mavzuviy, fikriy-ilmiy sayohat usulida ham olib borish mumkin. Buning uchun ko'hna Samarqand imoratlari, rasadxona rasmlari tushirilgan otkritkadan foydalaniladi. Fizika xonasida epidiaskop ishlasa, ularni kattalashtirib, ekranga tushirish mumkin. O'quvchilar ilmiy sayohat ishtirokchilari, o'qituvchi esa „gid“ vazifasini bajaradi.

Tanishtirish temuriylar davrida qurilgan tarixiy obidalar bilan boshlab, rasadxona rasmiga kelib to'xtaydi. Rasadxonani qurish uchun loyihaning boshida Ulug'bekning o'zi turganligini, o'sha davrning buyuk matematigi G'iyosiddin Jamshid loyihalarga tuzatish kiritganligini, astronomik asboblarni tayyorlash va qurishda katta hissa qo'shganligi aytiladi. Bu tadqiqotlarning davomi sifatida teleskoplar yaratilishi va hozirgi zamondagi radioteleskop, rentgen teleskoplari va kosmosga chiqarilgan teleskoplar haqida tushuncha beradi.

O'quvchilarni fizika faniga qiziqtirishda har xil fizikaga oid topishmoqlardan ham foydalanish mumkin. Topishmoqlar aql-zakovat, fikr o'tkirligining sinov quroli hisoblanadi. Chunki u o'quvchini hozirjavoblikka o'rgatadi. Dars jarayonida ruhiy charchashning oldini oladi. O'qituvchiga esa o'quvchilarning zehni dunyoni o'rganishga, ularni individual xususiyatlarini aniqlashga yordam beradi.

Ko'zga ko'rinmas Qo'lga ilinmas, Shusiz hech joyda,

Hayot ham bo'lmas. (Havo) Kerak har bir xonadonga, Issiqligi huzur jonga. Televizor, xolodelnik,

U bor bo'lsa jonli tirik. (Elektr toki) Nur sochadi har yoqqa, Kerakmas unga gugurt.

U bilan ravshandir yurt. (Lampochka) Ming chiroqda yuzta son,

O'lchar yuza va tomon. (Santimetr)

Fizikadan o'tkaziladigan to'garaklar o'quvchilarning nazariy va amaliy bilimlarini chuqurlashtirish eng qulay shakli bo'lib, unda fizikaga, uning amaliy tadbirlariga qiziqish mayllarini ixtiyoriy ravishda jalb qilinadi. To'garaklarining muvaffaqiyati uni to'g'ri tashkil qilishda to'garakdan maqsad o'quvchilarni fizik tajriba o'tkazishda mustaqillik, tashabbuskorlik va faolligini oshirishdir. To'garak mashg'ulotlarini qiziqarli qilib tashkil etish maqsadida ba'zi hollarda o'quvchilar dars bilan kamroq band bo'lgan kunlarida, ularning o'tkazish usul va metodlarini juda tez o'zgartirib turish maqsadga muvofiqdir.

Maktabning ta'limiy muhitiga fizika xonasining jihozlanganligi, kompyuter sinflarining mavjudligi kiradi. Hududda ishlab chiqarish korxonasi, muzeylarning borligi va ularga ilmiy sayohatlar uyushtirish imkoniyatlari esa maktabdan tashqari ta'lim muhiti hisoblanadi. O'quvchilarning ta'limga bo'lgan ehtiyojini



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th December, 2022

ISSN: XXXX-XXXX

Website: econferenceseries.com

o'rganishning usullaridan biri - bu kuzatishdir. Kuzatish ishlari darsda va darsdan tashqari paytlarda ham o'tkazilishi kerak. Bunda qaysi mavzudagi kitoblarni ko'proq o'qishi, qanday to'garakka qatnashi, sayohatga chiqqanda, muzeyga borganida, ko'rgazmalarda bo'lganida o'zini tutishi ham hisobga olinadi.

Maktabda o'quvchilarni fizika faniga qiziqtirishda tatbiqiy fizika hamda fanlararo bog'lanishlarning ahamiyati katta. Shu munosabat bilan maktabda, biofizika elementlarining kiritilishi eng avval o'quvchilarda fizika predmetini chuqur va keng o'rganishlarida zamin yaratadi, fanlararo aloqadorlikni jonlanatiradi, o'quvchilarda kasbga bo'lgan qiziqishlarini oshirib, uni ongli ravishda tanlash imkoniyatlarini yaratadi, politexnik ta'limni yanada kuchaytiradi. Fizika o'qituvchisi fizikaga oid materiallarni boshqa predmetlar bilan bog'lagan holda o'tishlari uchun ular eng avval, o'rta maktabda o'tiladigan predmetlarning programmalari bilan yaxshi tanishishlari hamda taklif etilayotgan materiallar mazmuni, maqsadi va vazifalarini yaxshi bilishlari zarur. Shuningdek, fizika o'qituvchisi o'quvchilarning fizika predmeti materiallaridan olgan bilim va ko'nikmalarini qaysi biri qachon va qaysi temani o'tishda boshqa predmet-o'qituvchisiga yordam berishini, xuddi shuningdek, fizik materiallar amaliyotda qayerda, qancha miqdorda qo'llanishini ham bilishlari kerak. Aks holda fizika o'qituvchisi boshqa predmet o'qituvchilariga yaqindan yordam bera olmaydi va o'z predmetini ham boshqa fan materiallariga, ayniqsa, amaliyot bilan bog'lagan holda tushuntira olmaydilar. Biofizika elementlarini fizika kursida hamda boshqa predmet materiallari bilan bog'lab o'qitish va tarbiya jarayonida, samaradorligini oshirishda, o'quvchilarning har tomonlama to'liq va mustahkam bilim olishlariga katta imkoniyat yaratib beradi.

Keyingi yillarda qayta tiklanuvchi energiya manbalari (shamol, quyosh, geothermal, biomassa) haqida ommaviy axborot vositalari, ilmiy-amaliy konferensiyalarda ko'plab yangi ma'lumotlar e'lon qilinmoqda. Shu bois, bu ma'lumotlarni ta'lim jarayoniga, xususan, fizika darslariga tatbiq qilish, energiya, energetikaning eng so'nggi zamonaviy fizik va texnologik asoslarini o'quvchilarga yetkazish, ularda bu soha bo'yicha yetarlicha bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qilish muhim ahamiyatga ega.

Ilm-fanga, ustoz-murabbiylarga e'tibor qaratilayotgan shunday zamonda biz o'qituvchilardan yangi zamonga yangicha qarash, yondoshish va texnologiyalar bilan o'quvchilar ongiga, qalbiga kirib borish talab qilinar ekan, shu oliy maqsad ila qadam tashlashimiz lozimdir.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th December, 2022

ISSN: XXXX-XXXX

Website: econferenceseries.com

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ya.I.Perelman “Qiziqarli fizika” Toshkent-2009y 6 bet.
2. K.Tursunmetov “Ma’lumotnoma” Toshkent-2007 y 13-15 betlar .
3. M.Yo’ldashev “8-sinf fizika darslik” Toshkent - 2010 105-122 betlar.
4. L.S.Landsberg “Optika”. Moskva. 1976 y. 5-bet.



E- Conference Series

Open Access | Peer Reviewed | Conference Proceedings

